

ISHNI SUDA QADAR YURITISH BOSQICHIDA MUTAXASSISNI JALB ETISH ASOSLARI VA TARTIBI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10629343>

Ma'rufaliyev Ahrorbek Avazbek o'g'li.

Toshkent shahar IIBB huzuridagi Tergov boshqarmasi,

Korrupsiya, firibgarlik va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish bo'limi katta tergovchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritilishi, Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunishlari haqida, ishni sudga qadar yuritish haqida, konstitutsiyaviy normalar haqida so`z olib boriladi.

Kalit so`zlar

sud, hokimiyat, konstitutsiya, qonun, hujjat, huquq, tergov, surishtiruv, tashkilot, fuqaro, manfaat.

Аннотация

В данной статье судебная власть в республике действует независимо от законодательной и исполнительной власти, политических партий и других общественных объединений, судьи независимы и подчиняются только закону, судопроизводству, конституционным нормам.

Ключевые слова

суд, орган власти, конституция, закон, документ, право, расследование, дознание, организация, гражданин, интерес.

Annotation

In this article, the judicial power in the Republic operates independently of the legislative and executive authorities, political parties, and other public associations, judges are independent and obey only the law, the proceedings before the court, constitutional norms.

Key words

court, authority, constitution, law, document, right, investigation, inquiry, organization, citizen, interest.

O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda qayd etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustivorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysinadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi. Xususan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini raqamlashtirish orqali ularning ochiqligi va shaffofligi ta'minlanib, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, bugungi kunda tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinmaganligi sababli dastlabki tergov organlari tomonidan jinoyatlar haqida xabarlarini ko'rib chiqish va jinoyat ishlarini yuritishda ma'lumotlar almashinuvi samarali yo'lga qo'yilmasdan, qog'oz shaklida amalga oshirilmoqda.

Jinoyatni tezkor va to'liq fosh etish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida olish imkoniyatining mavjud emasligi dastlabki tergov organlari faoliyatida protsessual muddatlar buzilishiga olib kelib, ish bo'yicha isbotlanishi talab qilinadigan holatlar qisqa muddatda va har tomonlama tekshirib chiqilishiga to'siq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. Konstitutsiyaning 14-moddasiga muvofiq, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning 32-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Mazkur konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda jamoatchilik yordamiga tayanadilar. Sud ishlarini yuritishda, jumladan ishni sudga qadar yuritishda ham jamoat birlashmalari va

jamoalarning vakillari jamoat ayblovchilari hamda jamoat himoyachilari tariqasida qatnashishga haqli ekanligi qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jinoyat ishlarini yuritishda qatnashishining ahamiyati shundaki, ular o'zlariga berilgan huquqlarini amalga oshira borib, sodir etilgan jinoyat hodisasiga nisbatan jamoatchilikning fikrini ifodalaydilar, ish holatlarini har tomonlama va to'liq tekshirishiga ko'maklashadilar, jinoyatning sodir etilishi sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni batafsil aniqlashga hamda ish yuzasidan adolatli hukm chiqarilishiga yordamlashadilar. Qonunda jamoat birlashmalari va jamoalarning sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi tariqasida ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborish tartibi belgilab qo'yilgan.

Hujjat Prezidentning 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son hamda 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmonlariga muvofiq qabul qilingan.

Joriy etilayotgan "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi quyidagilarni nazarda tutadi:

- ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyatlarga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish va jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash uchun davlat organlari hamda tashkilotlar o'rtasida tezkor axborot almashish;

- surishtiruvchi va tergovchilarning qarorlari, topshiriqlari, ko'rsatmalari hamda boshqa xabarnomalarini tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga elektron hujjat ko'rinishida yuborish, shuningdek, ularga javoblarni mazkur tarzda qabul qilish;

- jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash choralari ko'rish va uning samaradorligini oshirish maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchining mol-mulkini xatlash, shuningdek, qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchilarga nisbatan cheklov choralari AKTdan foydalangan holda o'z vaqtida amalga oshirish.

Yagona tergov axborot tizimi orqali ishni sudga qadar yuritish masalalarida elektron hujjat almashish IIV, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, DBQ hamda Milliy gvardiyaning surishtiruv va tergov organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida dalillarni tekshirishning bevositaligiga ko'ra, tergovni amalga oshiruvchi shaxs, jinoyat fakti, jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi kerak bo'lgan boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shaxsan qabul qilishi kerak. Shu munosabat bilan ushbu ish bo'yicha ish yuritish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali dalillarni olish taqiqlanadi. Masalan, ishni tergov qilayotgan tergovchi emas, balki bu ish bo'yicha protsessual harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lmagan boshqa shaxs tomonidan o'tkazilgan so'roq bayonnomasida keltirilgan shaxsning ko'rsatuvlari dalil deb topilishi mumkin emas. Bu qoida JPK 951-moddada ham aks etgan.

Tergov amaliyotida mazkur prinsip doimo to'laqonli ravishda ishlamoqda, deb bo'lmaydi. Biz buni birgina ehtiyot choralarini qo'llash bilang bog'liq iltimosnomalarning sud tomonidan o'rganilishida ko'rishimiz mumkin.

Zarurat bo'lganda, prokuror tomonidan sudga ko'zdan kechirish uchun mazkur hujjatlarning asli, shuningdek boshqa hujjatlar taqdim qilinishi mumkin. Biroq, sud mazkur holatda JPKning 26-moddasida nazarda tutilgan tartibda dalillarni tekshirmaydi, jabrlanuvchi yoki guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertdan xulosa mazmuni eshitilmaydi. To'g'ri, jinoyat-protsessual qonunchilikda bu holat sud iltimosnomani ko'rib chiqish jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchining aybliligi yoki aybsizligi masalasi muhokamasiga kirmagan holda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilishi bilan izohlanadi. Lekin, qo'yilayotgan gumon yoki aybning asoslilikini tasdiqlaydigan dalillar bevosita sud tomonidan tekshirilishi kerak, deb hisoblaymiz.